

**JIZZAX VILOYAT XALQ TA'LIMI
XODIMLARINI QAYTA TAYYORLASH
VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH
HUDUDIY MARKAZI TOMONIDAN
TAYYORLANGAN**

MAVZU: KUTUBXONALARDA O'TKAZILADIGAN MA'NAVIY MA'RIFIY VA BOSHQA TADBIRLARNI TUZISH VA O'TKAZISH METODIKASI

REJA

1. Kutubxonalarda ma'naviy-tarbiyaviy tadbirlarni tashkil qilinishi va o'tkazilishi.
2. Kutubxonalarda tarbiyaviy tadbirlarni tashkil qilinishi va o'tkazilishi.
3. Maktab kutubxonasidagi ommaviy ishlarning shakllari: an'anaviy va noan'anaviy ko'rgazmalar.
4. Kitob muhokamasi, konferensiyalar. Adabiy o'yinlar va viktorinalar.
Bolalar va yoshlar kitobi haftaligi

Bugungi kunda mamlakatimizda 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlarni strategiyasi asosida barcha sohalar va tarmoqlarda ulkan o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an‘analar chuqur qaror toptirishishga xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma‘naviy-intellektual salohiyati, ongu-tafakkuri va dunyo qarashini yuksaltirishda, Ona Vatani va xalqiga muhabbat, va sadoqat to‘yg‘usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo‘lgan kitobxonlik madaniyatini oshirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda



Prezident farmonlari va hukumat qarorlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash va kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishga oid targ'ibot ishlarini tizimli va samarali tashkil etish borasida kitobxonlar, kutubxonachi va targ'ibotchilar o'rtasida quyidagi ko'rik-tanlovlarning saralash va respublika bosqichlarini o'tkazish mumkin:

Ko'rik-tanlovlar

1

Eng kitobxon maktab

2

Eng kitobxon mahalla

3

Eng kitobxon oila

4

Eng faol kutubxonachi

Kitobxonlik madaniyatini oshirish ishlarini samarali tashkil etishda quyidagi bosqichli “**Kitobxonlik bayrami**” turkumidagi tadbirlarni o’tkazishi mumkin:

Umumta’lim makablarida o’tkaziladigan bir bosqichli madaniy-ma’rifiy tadbirlar:

“ADABIYOT KUNLARI”

“KITOBIM OFTOBIM”

“KITOB TAQDIMOTI”

“MAKTAB-KUTUBXONA-OILA-JAMOAT TASHKILOTLARI”

“BIR FARZANDGA UCH KITOB”



UCH BOSQICHLI TANLOVLAR:

“ENG YAXSHI KITOBXON O‘QUVCHI”

“KITOBXON MAKTAB”

KITOBXONLAR BILAN QUIYIDAGI NOAN’ANAVIY KO‘RGAZMA ISHLARNI TASHKIL ETISH MUMKIN:

“BITTA KITOB KO‘RGAZMASI”

“KO‘RGAZMA-SAVOL”

“KO‘RGAZMA-VAZIYAT”

“KO‘RGAZMA-TAQRIZ”

“KO‘RGAZMA-TAQDIMOT”

“KITOBXON TOMONIDAN TAYYORLANGAN KO‘RGAZMA”

“ KO‘RGAZMA-ERTAK”



Yosh avlodni jismonan sog‘lom va ma‘nan yetuk, har jihatdan barkamol etib tarbiyalashga kitobning roli katta ahamiyatga ega. ”Kitobxon maktab” doirasida o‘tkaziladigan **“Eng yaxshi kitobxon o‘quvchi”** va **“Kitobsevarlar bayrami”** tanlovlari 3 bosqichda tashkil etiladi. **“Kitobsevarlar bayrami”** doirasida umumta‘lim maktablarida o‘tkaziladigan tadbirlarni maktabda tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq tashkiliy ishlar (o‘tkazish vaqti, joyi, tashkiliy guruh va ekspert komissiyasi tarkibi) maktab direktorining, tanlovlarning tuman (shahar) bosqichini o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy ishlar tuman(shahar) XTMFMTTEB bo‘limlarining, hududiy bosqichini o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy ishlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq Ta‘limi vazirligi, Toshkent shahar viloyatlar xalq ta‘limi boshqarmalarinig buyruqlari bilan, **“Kitobxonlar bayrami”**ning yakuniytadbiri sifatida o‘tkaziladigan **”Kitobxon maktab”** tanlovining Respublika bosqichi bo‘yicha tashkiliy ishlar O‘zbekiston Respublikasi XTV buyrug'i bilan tasdiqlanadi.



“Bir farzandga uch kitob” aksiyasi maktablarda ota-onalar o‘rtasida o‘quvchilarning Yoshi va o‘quv dasturlarini inobatga olgan holda ularni badiiy va qo‘shimcha Adabiyotlar bilan ta’minlash zarurligini hamda har bir oilada oilaviy kutubxona bo‘lishini, bolalarning ayniqsa ta’til kunlarida ko‘proq badiiy kitob o‘qishlarini ota-onalar oiladan azzoratqilishlari zarurligini targ‘ib qilish, bu borada tushuntirish ishlarini olib borish maqsadida tashkil etiladi.



“Bolalar kitobi haftaligi” Davlat talablari nimalardan iborat?

Kitobni inson hayotidagi o‘rnini anglash, o‘rgatish, ota-onalarni farzandlari bilan kitob o‘qishga erishish, kitob fondini boyitish.

“Bolalar kitobi haftaligi”ning vazifasi quyidagicha



1. Yosh kitobxonlar uchun nashr kilingan eng qiziqarli kitoblarni namoyish qilish;
2. Bolalarning kitob o‘qishiga rahbarlik masalalari;
3. O‘qituvchilar, ota-onalar, kutubxonachilarning diqqatini tortish;
4. Tuman va viloyat maktablari o‘rtasida aloqani mustahkamlash;
5. Maktabda kitob bilan ishlashni o‘rgatish;



Bayramni tashkil etish va o‘tkazishda faol kitobxonlarning yetakchilik qilishlari juda muhimdir.

Bolalar kitob xaftaligini boshlamasdan oldin o‘quvchilar orasidan **“Men nima xaqida o‘qishni yaxshi ko‘raman”** so‘rovnomasini tarqatish mumkin.

So‘rovnomaning maqsadi, bolalar hayotida kitob qanday o‘rin egallayotganini anglash.

Bu so‘rovnoma bolalarning kitob o‘qishi, adabiy asarlarning asarlari va janrlari, mavzulari, badiiy va o‘quv bilim kitobini nisbatini belgilaydi.



O'zbekiston Respublikasi Mustaqillikka erishgandan so'ng bayramlar, tarixiy sanalar, umumxalq bayramlari, buyuk ajdodlarimizni xotiralash va qadrlash, ularni tavalludkunlarini nishonlash an'anaga aylanib qoldi.

Mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash borasida o'tkaziladigan tadbirlar, yoshlarda Vatanga muhabbat, Vatan tuyg'usini tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan bir qatorda o'quvchilarning darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli unumli tashkil etish imkonini yaratadi.

Kutubxonachi kundalik ishida yosh kitobxonni tarbiyalash, turli intellektual bilimlarini rivojlantirish, kutubxona resurslarida zarur yo'nalishlarni erkin topishni ta'minlash bilan bog'liq ko'plab pedagogik masalalarni doimo hal etib boradi.



Mashg'ulotlar hamma toifadagilarga mos bo'lishi. Katta yoshdagilar ham xohlab ishtirok etishlarini hisobga olingan bo'lishi lozim. Ko'p o'yinlardan interfaol kitob ko'rgazmalarini tashkil qilishda foydalanish mumkin.

O'yinlarni biroz shartli ravishda quyidagi to'rtta guruhga bo'lish mumkin.

So'zlar va raqamlar bilan o'yinlar

She'rlar bilan o'yinlar

Umumiy rivojlantirish va bilim doirasini kengaytirish uchun o'yinlar

Ko'ngil ochish va fantaziyani rivojlantirish o'yinlari

Mashg'ulotlar vaqtida quyidagilardan foydalanish mumkin.

-Rebuslar:

- Anagrammalar;

- Krossvordlar

Yangi bibliografik mashg'ulotlarni ishlab chiqish kutubxona mutaxassisleri ijodiy faoliyatidagi istiqbolli eng asosiysi esa, har tomonlama samarali yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bibliografik o'yinlar, didaktik o'yinlar, ya'ni, pedagogik tomonidan bolalarga ta'lim va tarbiya berish maqsadlarida yaratiladigan o'yinlar turkumiga kiradi. Bu o'yinlarning ta'limiy-tarbiyaviy mazmuni didaktik topshiriq ko'rinishida shakllantiriladi, bunday o'yinda bolalar bir-birlariga faol yordam berishni o'rganadilar, shuningdek, bu metod o'qishga jalb qilish va bolalarning aqliy rivojlanishi uchun ishlatiladi. Kutubxona mashg'ulotlarining metodlari quyidagilar:

- treninglar;
- viktorinalar;
- tanlovlar;
- o'yinlar;
- ovoz chiqarib o'qishlar;
- suhbatlar;
- konferensiyalar;
- axborot savodxonligini va o'qish madaniyatini shakllantirish bo'yicha kutubxona darslari.

MAKTAB KUTUBXONASIDAGI OMMAVIY ISHLARNING SHAKLLARI: AN'ANAVIY VA NOAN'ANVIY KO'RGAZMALAR

Kutubxonalarining ko'rgazmalar tashkil etish faoliyati kutubxonachilik-bibliografiya xizmati ko'rsatishning muhim tarkibiy qismidir. Kutubxonachilik ko'rgazmasi-bu kutubxonadan foydalanuvchilarga yaqindan ko'rish va tanishish uchun tavsiya etilayotgan maxsus tanlangan va tizimga solingan matbuot asarlari va axborotning boshqa tashuvchilarini namoyish qilishdir.

Har bir ko'rgazma o'z aniq vazifasiga va muayyan kitobxonlik yo'nalganligiga ega bo'lmog'i lozim. Ko'rgazma kitoblarni qo'lga olib ko'rish va shu orqali ularning mazmunini idrok etish mumkin bo'lgan holatda ochiq turdagi materiallarni bevosita ko'rsatishdir. Ko'rgazma faoliyati ko'rsatmalilik tamoyiliga tayanadi. Kitoblarning o'zini va ularning mazmunini yaqqol ochib berish orqali kechadigan boshqa axborot manbalarini bevosita ko'rsatish kitobxonlarning diqqatini o'ziga tortish vazifalariga xizmat qiladi va kerakli nashrlarni qidirib topish ishlarini yengillashtiradi.

Ko'rgazmalarda tavsiyalarni illyustratsiyalar(portretlar, dekorativ unsurlar), sitatalar, annotatsiyalar, grafiklar, jadvallar bilan boyitish imkoniyatidan foydalaniladi.

Ko'rgazmalarni namoyish qilish uchun doimiy joy ajratish, shuningdek, maxsus jihozlarni: tagliklar, kitob ko'rgazmasi vitrinalari, ko'rgazmali vositalarni qo'llash ma'qul bo'ladi.

Ko'rgazmali vositalaridan biri kitob vositasidir. Unda o'quvchi bevosita kitobning o'zini-o'z ko'zi bilan ko'radi, kitob tashqi iyofasi bilan uni o'ziga tortadi. To'g'ri va rangdor jihozlangan ko'rgazma hammavaqt kitobxonning nigohini o'zida to'xtatadi va uni ijodkorlikka taklif qiladi.

Ko'rgazmalar bolalarning aniq bir maqsadga qaratilgan rejali mutolaning tayyor rejasini taqdim etadi. Ko'rgazmalarda odatda kutubxona fondidagi eng yaxshi adabiyotlar namoyish etiladi. Umumta'lim muassasalari kutubxonasida abonementda bo'lganidek, qiroatxonada kam deganda birdan uchtagacha ko'rgazma bo'lib, ular vaqti-vaqti bilan almashtirilib turilishi kerak.

Ko'rgazmalarning soni va mavzusi kutubxona ish rejasida ko'zda tutilgan bo'ladi.

Kutubxonachilik ko'rgazmalarini bir qator belgilariga ko'ra tasniflash mumkin

Maqomiga ko'ra - mustaqil yoki yondosh ommaviy tadbir. Bu shuni bildiradiki, ko'rgazmalar mustaqil foydalanilishi mumkin bo'lgan yangi olingan kitoblar ko'rgazmasi.

Mazmuniga ko'ra - universal, sohaviy, mavzuviy, shaxsiy biror maqsad uchun mo'ljallanganligiga ko'ra-kasbiy va ta'limiy faoliyatiga yordam uchun

Namoyish qilish joyiga ko'ra – kutubxonada yoki undan tashqarida tashkil etilayotgan ko'rgazmalar

Faoliyat ko'rsatish muddatlariga ko'ra - doimiy, uzoq muddatli, qisqa muddatli va boshqa shaklda ko'rsatish mumkin

Kitob muhokamasi, konferensiyalar. Adabiy o'yinlar va viktorinalar.

Bolalar va yoshlar kitobi haftaligi

Kitoblar muhokamasi, munozaralar, konferensiyalar kitobxondan ma'lum faollik namoyon etishini talab qiladi, uning mustaqillik faoliyatini kuchaytiradi. Kitobxonlar konferensiyalari kitoblarning targ'ib qilishning ommaviy shakli hisoblanadi. U o'quvchilarning kuchi yordamida asarni teran va har taraflama tahlil etish imkonini beradi, kitobga jiddiy munosabatda bo'lishga, o'qilgan kitob ustida keng fikr yuritishga, taqqoslashga, tahlil etishga, xulosalar chiqarishga, ularni dalillar yordamida asoslashga, ochib berish va himoya etishga o'rganadi.

Kitobxonlar konferensiyasi butun bir jamoadan katta ish bajarilishini talab etuvchi yirik tadbirlardir. Uni birgina kutubxonachining kuchi bilan tayyorlash va o'tkazish mumkin emas. Unga o'qituvchilar, sinf rahbarlari, tarbiyachilar faol yordam berishlari lozim. Maktab kutubxonachisining vazifasi tashkilotchi, rahbar sifatida ish ko'rish va barcha ishlarga bosh qosh bo'lishdan iboratdir.

Tayyorgarlik ishlari qanday olib boriladi?

- ▶ Odatda konferentsiya mavzusi muhokama uchun savollar bir yarim oy oldin belgilanadi, shuningdek uni o'tkazish rejasi tuziladi.
- ▶ Mavzu dolzarb, maktabning tarbiyaviy vazifalariga javob beradigan bo'lishi kerak, muhokama uchun savollar esa muhokama olingan barcha kitoblarni birlashtirib turuvchi markaziy muammolar tilga olinadi.
- ▶ Eng avvola konferentsiya olib boruvchi kishini va tinglovchilarni tayyorlash lozim, adabiyot o'qituvchisining olib boruvchi bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

- ▶ Ikkinchi muhim vazifa tinglovchilarni, ya'ni konferensiyaning barcha ishtirokchilarini tayyorlashdir. Ko'pchilik o'quvchilar muhokama etilayotgan asar bilan tanishganlaridagina savollar kitob muammosi konferensiya qatnashchilarida qiziqish uyg'otishi mumkin, chunki maktab kutubxonasida kitob nusxalari kam bo'ladi, shu sababli kutubxona ularni boshqa kutubxonadan qarzga olib kelishga yoki guruh-guruh bo'lib mutolaa qilishni tashkil etishga majbur bo'ladi.

Kitob targ'ibotining ko'rgazmali shakli keng qo'llanmog'i kerak. Rang-barang qilib bezatilgan ko'rgazmali vositalarda kitob muqovasidagi suratlar, ularga berilgan savollar, so'zga chiquvchilar haqida biografik ma'lumotlar, yosh kitobxonlardan kelgan taqrizlar, rasmlar tanqidiy maqolalar ro'yxati joy olgan bo'lish kerak.

- ▶ Konferensiyaning ommaviylashuvida, muhokama uchun mo'ljallangan kitoblarning, targ'ib etishida kitob ko'rgazmalari va sharhlari katta ahamiyat aks etishi mumkin.

Kitobxon konferensiyalari quyidagi reja asosida o'tkaziladi:

- ▶ 1. Kirish so'zi (mutolaa, konnferensiyaning maqsadi va vazifalari haqida).
- ▶ 2. O'quvchilarning so'zga chqishlari va muhokama.
- ▶ 3. Badiiy qism.
- ▶ 4. adabiy viktorina.
- ▶ 5. Xulosa, xotima.

Shunday qilib ommaviy ishlar yordamida mutoalaaga mohirlik bilan rahbarlik qilish yoshlarning mutoalaga bo'lgan qiziqshlarini kuchaytiradi va orttirilgan kitobxonlik malakasini mustahkamlash, badiiy did va mulohaza yuritish mustaqilligini oshirish, kitobxonlik darajasi va bilimi ko'lamini kengaytirish vazifasini mas'uliyat darajasiga ko'taradi



Adabiy o'yinlar va viktorinalar. Bolalar va yoshlar kitobi haftaligi.

Bu usulda juda ko'p kitobxonlar ishtirok etadi va juda ko'p ma'lumotlar yig'iladi. Bu usullarning qulay tomoni shundaki, unda kutubxonachi ko'p vaqt sarflamay, kerakli bo'lgan ma'lumotlarni aniqlab oladi. Anketa yozma shaklda olib borilsa, intervyu og'zaki shaklda olib boriladi. Bularning bir-biridan ustunligi va kamchilikliklar ham bor. Anketaga kitobxon o'z fikrini bir yerga to'plab, o'z holicha, ya'ni yakka so'roqlarga javob beradi va tabiiy chiqadi, lekin kutubxonachi uni ko'rmaydi. Intervyuda kutubxonachi savol berish bilan birga javob berayotganda kitobxonni kuzatadi. Ammo o'quvchi savollarga birdaniga, o'zi o'ylaganicha javob bermasligi yoki uyalishi mumkin. Shuning uchun ham ularni qanday va qaysi holatlarda qo'llashni kutubxonachi yaxshi o'ylab hal qilishi lozim.

Kutubxonachi anketa va intervyu savollarini tayyorlashdan oldin ularni qanday maqsadda ishlatilishini aniqlab oladi hamda belgilangan maqsad va vazifaga qarab savollar tuzadi. Odatda boshqa yo‘llar bilan javob olib bo‘lmaydigan savollar anketa va intervyuda berilishi mumkin.

Mana shuning uchun ham savollar o‘ylab, kitobxonni qiziqtiradigan, uni o‘ylatadigan va iloji boricha haqiqiy javob beradigan qilib tuzilishi lozim. Shundagina biz kitobxonni to‘lqinlantirgan masalalarga to‘g‘ri javob olishimiz mumkin. Kutubxonada 7-sinf o‘quvchilari nimalarga, qanday mavzularga qiziqishini, maktabda qanday predmetlarni yaxshi ko‘rishini, qanchalik ko‘p kitob o‘qishini o‘rganilmoqchi bo‘linsa, quyidagi anketadan foydalanish mumkin. Bu anketa albatta kutubxonada tarqatiladi va kitobxonlardan to‘liq va aniq javob berish iltimos qilinadi.

ANKETA

1. Sizga maktabdagi o‘quv fanlaridan qaysi biri birinchi navbatda qiziqtiradi? _____
2. Sizni nima uchun shu fanlar qiziqtiradi? Kim bo‘lishni xohlaysiz? _____
3. Texnika va tabiatshunoslikka oid ommabop kitoblarni o‘qiysizmi? _____
Qanday kitoblar o‘qiganingni aytib bera olasanmi?
4. Sportning qaysi turiga qiziqasiz? O‘zing kaysi turi bilan shug‘ullanasiz? _____
5. Qanday jamoat ishini olib borasiz va shu sohaga oid kitoblarni o‘qishni yuktirasizmi? _____
6. Qanday badiiy adabiyotni o‘qishni sevasiz (tarixiy, fantastik, buyuk kashfiyotlar, zamondoshlarimiz, ajoyib kishilar hayoti haqida va yana qanday), yozib qo‘ying. _____
Birinchi navbatda sevib o‘qiydiganlaringizni bir mar—ta, qolganlarini ikki marta qo‘ying.
7. She’rlarni o‘qiysizmi? Hozirgi zamon shoirlarining qaysi kitoblari sizga yoqadi?.
8. Oxirgi yili o‘qigan kitoblaringizni aytib bera ola—sizmi? Iloji bo‘lsa muallifi va kitobning nomini _____
_____yozing!
9. Qaysi kitoblarni ikki marta o‘qib chiqdingiz? _____
10. Qaysi kitoblarga o‘xshagan kitoblarni yana o‘qishni istaysiz? _____
11. Kutubxonada qanday kitoblar ko‘p bo‘lishini xohlaysiz? _____.

Muhokama uchun savollar

1.Yoshlarni tarbiyalashda nimalarga e'tibor

berish kerak..?

2.Anketa tuzishdan maqsad nima?

3.Konferensiya bir yilda kutubxonada necha

marta o'tkaziladi?

**JIZZAX VILOYAT XALQ TA'LIMI
XODIMLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
ULARNING MALAKASINI OSHIRISH
HUDUDIY MARKAZI TOMONIDAN
TAYYORLANGAN**

**E'TIBORINGIZ UCHUN
RAXMAT!**